

ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

G'aniyeva Dilobar Abdunabiyevna

Shaxrisabz shahar 2-sonli politexnikumi,

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilayotganligi, darslarni qiziqarli va samarali o'tkazishda interfaol metodlardan foydalanib dars o'tish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ona tili, adabiyot, dars, o'quvchi, o'qituvchi, samaradorlik, interfaol metod, imkoniyat.

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol ta'lismetodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagita'lismuassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lismetodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lism-tarbiya jarayoniningdeyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirdamavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlichqa'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lismetodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lism beruvchi tomonidan ta'lismolvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta'lismjarayonida faolligi muttasilrag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llashva ta'lismolvchilarini amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O'qitishning interfaol usullarini tanlashdata'lism maqsadi, ta'lismolvchilarining soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'lismning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darajasi, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyati kabilalarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim.

Bundan tashqari darsning metodini to‘g‘ri tanlash ham dars sama-radorligini ta’minlovchi omillardan hisoblanadi. Dars metodini tanlashda o‘qituvchi o‘quvchilarining real o‘quv imkoniyatini, o‘rganiladigan mavzuning talabini ham hisobga oladi. Ta’limning bu jihat o‘qituvchidan puxta nazariy bilim va pedagogic mahorat talab etadi. Jumladan, o‘qituvchi darsni turli metodlardan foydalangan holda tashkil etar ekan, ayniqsa, yangi bilim beruvchi darslarda ko‘proq muammoli o‘qitish metodiaga asoslanishi, qayta xotirlash xarakteridagi topshiriqlardan ham, ijodiy xarakteridagi topshiriqlardan ham foydalanishi lozim. Shuningdek, darsga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchi darslikdagi qaysi mashqlardan foydalanishini, mashq shartlariga qanday qo‘sishchalar yoki o‘zgartirishlar kiritishi mumkinligini rejalashtirishi kerak. Ta’lim vositalari hamma shg‘ulotlar samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Darslik ham ta’limning muhim vositasi hisoblanadi.

Xususan, maktab ona-tili ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarni ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, raxon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ekan, bu maqsad darsliklarda o‘z ifodasini topgan.

Maktablarda ona tili o‘rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo‘yan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni bajarish o‘quvchilar ongini o’stirishga, ularga g’oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo’naltirilgan. Ona tilini o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda o‘z fikrini grammatik to‘g‘ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to‘g‘ri yoza olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o‘quv predmeti sifatida o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, o‘quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo’naltirilgan umumta’lim vazifalari bilan bog’liq holda amalga oshiriladi.

Ta’lim berish yangi, samarador, takomillashgan usul va texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonida yanada mukammallashgan yo‘nalishini xosil qilishdan iborat bo‘lib mukammal dastur, takomilashgan darslik, zamonaviy usul



va texnologiyalar ta'limgarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga tasir etadi. Ta'limgarayonini yangi mazmun va shakilda yo'lga qo'yish malakasi, eng avvalo, ona tili ta'limga taluqlidir. Chunki har qanday fanning mohiyati ona tili orqali iroda qilinadi va ona tili orqali idrok etiladi. Keyingi yillarda til o'qitishda metodik jixatdan o'quvchilarni faollashtirish masalasi nazariy jixatdan jonlangan bo'lsa-da, uni amaliy qo'llash juda sekin bormoqda va bu masalani amalga oshirishga bag'ishlangan o'zbek tilidagi metodik adabiyotlar yetarlicha emas, buning uchun xar bir o'quvchi shu soxada yetarli darajada metodik adabiyotlar bilan ta'minlangan bo'lishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollangan bo'lib, o'qituvchining o'zi shu jixatdan yetarli darajada bilimga ega bo'lmog'i tildagi har bir xodisalarni, qonuniyatlarni tushuntirishda falsafiy jixatdan tayorlangan bo'lmog'i kerak. Bugungi kunda ona tili darslari oldiga qo'ygan vazifalarining asosiysi yoshlarda o'z fikirlarini mantiqiy izchil, barcha imkoniyatlari gavdalangan holda ta'sirli ravishta yetkazib berishdan iboratdir.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgarayonini vazirligi sayti.
2. <http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.
3. www.bimm.uz - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgarayonini vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markaz
4. <http://www.president.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portalı.

